



FARG'ONA VILOYATI QO'SHTEPA TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 14 - may

119-11-157-Q/22

Qo'shtepa tuman hokimligi

Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 71-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Qo'shtepa tumani Qiyqi mahalla fuqarolar yig'ini Sohibkor ko'chasida joylashgan yer maydoni zahira yeri fondida ekanligi, "Yerelektron" ATT dasturi orqali tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida elektron dastur orqali vakolatli tashkilotlarning kelishuvi hamda muhokamadan o'tkazilganligi va tuman hokimining o'rinbosari B.Qurbonovning bildirishnomasi inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (B.Qurbonov), Kadastr agentligi tuman bo'limi (R.Ahmadaliyev), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (U.Abdullaxojiyev), Davlat Kadastrlar palatasi Farg'ona viloyati boshqarmasi (U.Abdualiyev) bilan hamkorlikda ilovadagi bo'sh yer maydonini tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun vakolatli organlarning ijobiy xulosalari olingandan so'ng, belgilangan tartibda elektron auksionda realizatsiya qilish belgilab qo'yilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (B.Qurbonov), Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Mirzayev), Kadastr agentligi tuman bo'limi (R.Ahmadaliyev), Davlat

Kadastrlar palatasi tuman filiali (U.Abdullaxojiev) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 24-bandiga muvofiq yer uchastkasi mulk huquqi bilan auksionga chiqarilganda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi baholash tashkiloti tomonidan tayyorlangan hisobot va ekspertiza xulosasi asosida "Yerelektron" ATTga yer uchastkasining boshlang'ich narxini kiritishi, yer uchastkasi ijara huquqi bilan auksionga chiqarilganda "Yerelektron" ATT avtomatik ravishda tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan yer uchastkasiga ijara huquqining minimal qiymati asosida auksionga chiqarilayotgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqining boshlang'ich qiymatini belgilanishini inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari B.Qurbonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov

Qo'shtepa tuman hokimining
2022 yil 14 maydagi
119-11-157-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qo'shtepa tumani hududida joylashgan bo'sh yer maydoni.

No	Manzili	Yer uchastkasini "YERELEKTRON" tizimdagi raqam	Kadastr raqam	Maydoni (gektar)
1.	Qo'shtepa tumani Qiyqi mahallasi Sohibkor ko'chasi	P173020607331-1	15:08:01:01:03:1542	0,10